

MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR  
ASOSIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARIDAN  
FOYDALANISHNING O‘RNI

*Yo‘ldoshev Sarvarbek Uktamboy o‘g‘li*  
*Urganch davlat pedagogika instituti*  
*Musiqqa ta’limi va san’at mutaxassisligi*  
*2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada musiqa madaniyati darslarini o‘qitishdagi zamonaviy yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish haqida gap boradi.

**Kalit so‘zlar:** Texnologiya, ovoz, jonli harakat, vizualizatsiya, demonstratsiya, realizatsiya, diskretlik.

THE PLACE OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES BASED ON  
MODERN APPROACHES IN MUSIC CULTURE LESSONS

Urgench state pedagogical institute  
Music education and specialty  
Yuldashev Sarvarbek Uktambay’s son,  
graduate student of the 2nd stage

**Abstract:** This article talks about modern approaches and the use of modern technologies in teaching music culture classes.

**Keywords:** Technology, sound, live action, visualization, demonstration, realization, discreteness.

O‘quv–uslubiy adabiyotlar majmualarini, yangi pedagogik texnologiyalarni yaratishga va amaliyotga joriy etish, bir tomondan davlat va jamoat muassasalari, ta’lim idoralari xodimlari; ikkinchi tomondan pedagog-olimlar, ilg‘or o‘qituvchilar, amaliyotchilari tomonidan katta ishlarni bajarishni, ta’lim-tarbiya, pedagogika texnologiyalari sohasida fundamental tadqiqotlar o‘tkazish, yangi pedagogik texnologiyalar loyihalarini ishlab chiqish va ilmiy tajribada sinovdan o‘tkazish ilmiy tavsiyalarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Keng ko‘lamda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari ta’limning ilg‘or texnologiyalarini o‘rganish va o‘quv –tarbiya jarayoniga joriy etishni taqozo etadi. Bu o‘z navbatida pedagog xodimlardan ta’lim sohasiga texnologik yondashuvni, pedagogik texnologiya usulini egallashni va O‘zbekistonning milliy, ma’naviy-madaniy xususiyatlari, tarixiy ilg‘or an’analarini hisobga olgan holda pedagogik

amaliyotga qo'llash va rivojlantirishni talab etadi.


Texnologik yondashuv mavjud an'anaviy o'quv jarayonga faqat kompleks tarzdagina emas, pedagoglar tomonidan o'zlashtirish, metodik qo'llanmalar o'quv-moddiy baza yaratilishiga qarab bosqichma-bosqich, ayrim elementlari amalga oshirilaverishi ham mumkin. Bu birinchi navbatda pedagogik texnologiyaning muhim qismi-predmetlari va mavzular bo'yicha ta'lim maqsadlarini aniqlash usullariga taaluqlidir.

Pedagogik tadqiqotchilar ta'lim-tarbiya xususiyatlarini o'rganganida ma'lum darajada bu yondashuvlarni qo'llaydilar. Amaliyotchi pedagoglar ham bundan mustasno emas. Agar har bir yondashuv nimaligini anglab, o'z o'rnida, maqsadga muvofiq unga amal qilinsa, o'quv-tarbiyaviy ishlar samaradorligi ancha yuqori bo'ladi.

Innovatsion texnologiya vositalari va texnologiyalari audiovisual ma'lumotlarni qayta ishlashning zamonaviy usullarini qo'llash orqali maktabni intensivlashtirish va maktab o'quvchilarining o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish imkoniyatini beradi, masalan:

- vizual ma'lumotni "manipulyatsiya qilish" (qoplash, ko'chirish);
- turli xil audiovizual ma'lumotlarning ifloslanishi (aralashish);
- animatsiya effektlarini amalga oshirish;
- vizual ma'lumotni deformatsiya qilish-ma'lum bir chiziqli parametрни oshirish yoki kamaytirish, tasvirni cho'zish yoki siqish;

Innovatsion texnologiya vositalari pedagogik nuqtai nazaridan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim-tarbiyasi jarayoniga tadbiiq etilishida kompyuter asosida yangicha yondashuv hisoblanadi. Kompyuterli texnologiyalar o'quvchilarning faolligini oshirishda, o'rganiladigan o'quv materiallarining hajmini ko'paytirishda va ta'lim jarayonining samaradorlik darajasini oshirishda muhim vosita sifatida amalga oshirilmoqda. Unda kompyuter monitoriga qarab ekranda ko'rsatiladigan materiallardan foydalanib bilim olish, kompyuter savodxonligini shakllantirish, ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Multimediali kompyuterli texnologiyada ko'rgazmali vositadan tashqari ta'lim beradigan manba sifatida qaraladi. Chunki o'rganiladigan materiallar oldindan kompyuter xotirasiga joylashtirilgan bo'ladi. O'qituvchi qaysi mavzuni o'quvchilarga o'rgatmoqchi bo'lsa, kerakli ma'lumotlarni monitor ekraniga chaqirib oladi va namoyish etiladigan materiallar bilan o'quvchilarni tanishtiradi. Shu asosda ular mavzu yuzasidan namoyish etilgan materiallarni o'rganib boradilar. Bunda o'quvchilar kompyuter bilan yetarli darajada ko'nikma hosil qiladi. Shu bilan birga maktab yoshidagi o'quvchilarning kompyuterdan foydalanish jarayonida tafakkuri rivojlanadi, bilim olishga qiziqishi ortadi va dunyoqarashi kengayib boradi. Innovatsion texnologiyasining ta'lim-tarbiya jarayonidagi samaradorligini quyidagi shaklda ifodalash mumkin. (1-jadval).



Innovatsion texnologiyasiga asoslangan kompyuterlashtirilgan ta'lim inson ya'ni o'qituvchining o'rnini bosa olmaydi. Mavjud ma'lumotlar va ta'lim tarbiyada albatta o'qituvchining roli muhim va birinchi o'rinda turadi. Bunda mustaqil va ijodiy fikrlash, ma'lumotlarni to'ldirish va takomillashtirish nazarda tutiladi. Multimediyadagi matn qisqa, lo'nda, aniq va tushunarli bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi uni nafaqat o'qishi, balki tezda yod olishi ham mumkin bo'ladi. Matnlarni turli shrift va ranglarda yozilishi o'quvchining e'tiborini yanada o'ziga tortishini ta'minlaydi.

Ovoz - bunda ma'lumotlar turli tovushlardan iborat bo'lib, o'quvchida hissiy bilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ovozning past-balandligi, intonatsiyali, hayajonliligi ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jonli harakat-monitorda turli narsa, predmet, odam yoki hayvonlar tasvirining xatti-harakatlaridan tashkil topgan bo'ladi.

Grafik tasvirlar muhokama qilinayotgan muayyan mavzudagi predmetni tasavvur qilish uchun hosil qilinadi. Bu xotiraning mustahkamlanishiga, mavzuni ma'lum bir predmet tasviriga bog'liq ravishda eslab qolishga yordam beradi.

Yuqorida keltirilganlar asosida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro erkin, jonli muloqot orqali xulosalar qilinadi va dars yakunlanadi.

Innovatsion texnologiyalaridan foydalanishning mohiyati sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- innovatsion texnologiyalaridan foydalangan holda musiqiy adabiyotlar va musiqani o'rganishda audiodarsliklardan foydalanish vaqtini tejash va o'qitish samaradorligini sezilarli darajada oshirishga qaratiladi ;
- yangi axborot texnologiyalari vositalari o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish, ularning ijodiy, kommunikativ qobiliyatlari o'stirish va kompyuter savodxonligi, axborot olish madaniyatini rivojlantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.
- o'quv jarayonida innovatsion texnologiya vositalaridan foydalanish turli davrlar, mamlakatlar o'quv uslublarini, musiqa madaniyati ta'limi jarayonini bir vaqtda kuzatib axborot va tajriba almashinuviga sharoit yaratishga imkon beradi.

Innovatsion texnologiya tizimlarining paydo bo'lishi inson faoliyatining ko'plab sohalarda tub o'zgarish yasadi. Innovatsion texnologiyasi ta'lim sohasida keng qo'llaniladigan sohalardan biriga aylandi. Chunki texnologiyaga asoslangan axborotlashtirish vositalari ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Eksperimental ravishda aniqlanishicha, materialni og'zaki taqdim etishda o'quvchi 1 daqiqada 1000 tagacha an'anaviy ma'lumotlarni qabul qiladi va qayta ishlay oladi, innovatsion texnologiyalari bilan esa bu ko'rsatkich 100 mingtagacha oshadi.

Innovatsion texnologiya vositalari va texnologiyalari audiovizual ma'lumotlarni qayta ishlashning zamonaviy usullari orqali maktabni intensivlashtirish va maktab o'quvchilarining o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish imkoniyatini beradi.

Masalan:

- Vizualizatsiya - ma'lumotni ko'rib tasavvurda jonlantirish;
- Realizatsiya - olingan ma'lumotlarni amaliyotga tadbiiq etish;
- Kontaminatsiya - (*qo'shib ketish, aralashish*) ma'lumotlarni jamlab, yangi tushunchalar hosil qilish
- Deformatsiya - ma'lum bir chiziqli parametrni kattalashtirish yoki kichraytirish, tasvirni cho'zish yoki siqish;
- Diskretlik (*uzlukli*) - audiovizual ma'lumotlarning uzlukli taqdimoti;
- Tasvirni tonlash;
- Vizual ma'lumotlarning tanlangan qismini keyinchalik ko'chirish yoki "*lupa ostida ko'rib chiqish*" uchun yozib olish;
- Bitta ekranda audiovizual malumotlarning ko'p oynali ko'rinishi, ekranning istalgan qismini faollashtirish imkoni mavjud. (*Masalan bitta oynada – video, boshqasida- matn*);
- Demonstratsiya - real vaqtdagi voqealarni namoyish qilish (video).

Multimediani ta'lim jarayonida qo'llashning o'ziga yarasha muammolari ham mavjud bo'lib, bular quyidagilar:

- ta'lim uchun kerak bo'lgan o'quv materiallar, qo'llanmalarni kompyuter dasturlari ko'rinishida ishlab chiqish;

➤ ishlab chiqilgan kompyuter dasturlarini ta'lim jarayonida samarali qo'llay olish.

Pedagogika fani va ta'lim-tarbiya amaliyotida turli yondashuvlar qo'llaniladi. An'anaviy yondashuv, tizimli yondashuv, texnologik yondashuv, tadqiqiy yondashuv, funksional, kompleks, faoliyatli yondashuvlar shular jumlasidandir.

An'anaviy yondashuv. Uning asosiy xususiyati o'qituvchi ma'lum axborotni gapirib beradi, tushuntiradi, o'quvchi esa bu bilimni xotirasida saqlaydi. "Bilim" tushunchasi xotirada saqlanadigan axborot ma'nosida tushuniladi. O'quvchida bilim bor-yo'qligi nazorat ishida shu axborotga doir berilgan savolga bergan javobiga qarab aniqlanadi. Bunda bilim degani asosan esda qoldirishning natijasidir, u ko'pincha yuzaki bo'lishi ham mumkin. Bunday bilim xotirada uzoq saqlanmaydi. Talaba savol berganda eslashi, ba'zan esa eslay olmasligi ham mumkin.

An'anaviy o'qitish usulida ta'lim maqsadi dastur talabiga binoan aniq ifodalanmaydi, talabani o'zlashtirish darajasi, sifati haqida muallim aniq tasavvurga ega bo'lmaydi.

An'anaviy ta'lim mamlakatimiz o'quv yurtlarida keng tarqalgan, uning turli jihatlari pedagogika, metodika fanlarida ishlab chiqilgan, katta tajriba to'plangan. An'anaviy ta'lim usulini takomillashtirish sohasida izlanishlar davom etayotir, lekin uning obyektiv imkoniyatlari cheklangan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar, tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan fan- texnika talablari-usulibilan jamiyatning raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga, barkamol avlodni shakllantirishga bo'lgan ehtiyoji o'rtasida nomutanosiblikni vujudga keltiradi. Uni ta'limda boshqa yangi yondashuvlarni qo'llash yo'li bilan hal etish lozim.

Tizimli yondashuv. Tizim so'zi tuzilma, qismlardan tuzilgan, birikkan yaxlit narsa yoki hodisa ma'nosini anglatadi. Tizim tushunchasi va so'zi boshqa ma'nolarga ham ega. Masalan, tizim–ip, sim kabilarga terilgan narsa, tizim, shoda kabilar. Shuningdek kibernetik tizim, axborotlar tizimi, ijtimoiy munosabatlar tizimi, harakatlar tizimi, pedagogik tizim kabi tushunchalar shaklida ham qo'llaniladi. Tizim tushunchasi odatda ayrim belgilarga ko'ra turlarga ajratiladi: moddiy narsalar tizimi; mavhum tushunchalar, frazalar, nazariyalar, ilmiy bilimlar tizimi kabilar.

Tizimli yondashuv ilmiy bilish metodologiyasi va pedagogik amaliyotning bir yo'nalishi sifatida universal tavsifga ega, pedagogikda keng qo'llaniladi, ta'lim-tarbiyaga ham pedagogic tizim sifatida o'rganishni nazarda tutadi. Tizimli yondashuv, ayniqsa, tuzilish vazifasiga ko'ra bajariladigan tahlilga juda yaqin. Tizimli tahlilning obyektini yaxlit narsa yoki hodisa tashkil qiladi. U birinchidan, obyektning turli qismlarini, ikkinchidan, qismlarning o'zaro bog'liqligini; uchinchidan, chegaralarini va to'rtinchidan, tizimning atrof-muhit bilan bog'liqligi, aloqadorligini nazarda tutadi.

Tizimli yondashuvda bir qancha qoida –prinsiplar majmuidan foydalanadiki, ular

tadqiqotchilik va amaliy faoliyatda yuqori natijalarga erishish imkoniyatini yaratadi. Bunday qoida –prinsiplar qatoriga, jumladan, quyidagilar kiradi: mavhumlikdan yaqqollikka qarab borishi; analiz bilan sintezning, mantiqiylik bilan tarixiylikning birligi;obyektda bog’lanishlar va o’zaro ta’sirlarning turlichaligi; obyektning tuzilishi –vazifalari va chiqish haidagi tasavvurlarning birligi va boshqalar.

Pedagogik tizim. Inson bolasini barkamol shaxs, biror kasb egasi sifatida shakllantiruvchi yaxlit ijtimoiy- pedagogik hodisa bo’lib, uning tarkibi pedagogik jarayonning obyektlari, subyektlari, shakl-usullari hamda ularni boshqarishdan iborat. Pedagogik fanlar tizimiga pedagogika nazariyasi va tarixi, o’qitish nazariyasi va metodikasi, maxsus pedagogika, jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi, madaniy- ma’rifiy ishlar pedagogikasi, ijtimoiy pedagogika kabilar kiradi.

Shuningdek, ta’lim-tarbiyaning maqsadi, shakl-usullari tizimi, ta’lim tarbiyaning yo’nalishlari, turlari tizimi, uzluksiz ta’lim tizimi, ta’lim muassasalari tizimi, pedagogik ixtisosliklar tizimi, o’quv vazifalari, o’quv axborotlari tizimli kabilar ham pedagogik tizim tarkibiga kiradi.

Texnologik yondashuv. Texnologiya yunoncha so’z bo’lib, “texno”- “mahorat”, “san’at”, “logos”- tushuncha, ta’limot” ma’nolarini anglataditexnologiya tushunchasi – tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo’llanadigan usul va metodlar majmui; shunday usul va metodlarni ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi fan sifatida ta’riflanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tarkibiy qismi bo’lgan amallar-materiallarni qazib olish, tashish, taxlash, saqlash vatasvirlash, ularni bajarish bo’yicha qo’llanmalar, texnik qoidalar va talablar, grafiklar ham kiradi. Sanoat ishlab chiqarish sohasida yuzlab texnologik loyihalar (jarayonlar ) yaratilgan. Ular , agar texnik hujjat talablariga amal qilinsa, ishni kim va qayerda bajarishidan qat’iy nazar, mahsulot sifati va natijasi kafolatlanadi.<sup>1</sup>

Ta’lim ishiga texnologik yondashuv:

- o’qish-o’qitish jarayonini o’zaro uzviy bog’liq etaplar, fazalar, amallarga ajratish, bo’lishni;
- ta’limdan mo’ljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshirilishni;
- loyihalashtirilgan ishlar, amallarning barchasini birdek bajarishni nazarda tutadi.

Bu yondashuv asosan, reproduktiv ta’limga xosdir. Reproductiv ta’lim tipik vaziyatlarda biror ish –harakatni oldin bilib olingan qoidalar asosida bajarishdir.

Reproduktiv darajasi uchun pedagogic texnologiya usulida ta’lim takror ishlab chiqiladigan konveyerli jarayon sifatida tashkil etiladi, undan kutiladigan natija ham

<sup>1</sup>Мирсагатова Н. «Талаба – ёшларда маънавий ва моддий ҳаёт уйғунлигини такомиллаштиришда педагогик технологияларнинг ўрни». - Тошкент.2011й.

mufassal tasvirlanib, aniq qayd etiladi. O'quv materiali aniq ifodalangan o'quv maqsadiga mos qayta tuzib, ishlab chiqiladi, ayrim bo'lak (qism, modul) larga ajratiladi. O'quv materialini o'rganishning alternativ yo'llari nazarda tutiladi, har bir bo'lakni o'rganish test yordamida nazorat etilib, xato, kamchiliklar tuzatilib, to'g'irlab boriladi. O'quv ishi etalonda ko'rsatilgan natijaga erishishni nazarda tutadi. Bu, bolalarni qiziqtirish, musobaqa va o'zaro yordamlashishni inkor etmaydi. Ta'lim reproduktiv xarakterda olib borilgani uchun ham bu usul bilim, ko'nikma va malakalarining zarur minimumini egallashda ko'proq samara beradi. Texnologik yondashuvni qo'llash qo'yilgan o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydi.

Tadqiqiy-ijodiy yondashuv. Bu yondashuv ta'limning maqsadi talabada biror muammoni yechish qobiliyatini o'stirish, yangi bilim (tajriba) ni mustaqil o'zlashtirish, harakatning yangi usullarini topish, shaxsan tashabbus ko'rsatishni ko'zda tutadi.

Tadqiqiy yondashuv faoliyatning ijodiy, aktiv xarakteri bilan bog'liq.

Bu yondashuvda talabanning o'quv –bilish faoliyatiga pedagog rag'batlantiruvchi usulda rahbarlik qiladi, bolaning shaxsiy tashabbusini qo'llab- quvvatlaydi, bola bilan hamkorlik qiladi, talabanning fikr va qiziqishlarini oldingi o'ringa qo'yadi. Tadqiqiy yondashuv bo'yicha ham pedagogik texnologiya variantlari ishlab chiqilgan.

Pedagogika nazariyasi va amaliyotida an'anaviy yondashuv o'z imkoniyatlarini sarflab bo'ldi, tizimli, texnologik va tadqiqiy yondashuvlar istiqbolga ega. Texnologik tizimli va tadqiqiy yondashuvlardan har birining ta'lim tizimida o'z o'rni bor va o'z joyida qo'llanilishi lozim. Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning turli darajalari uchun pedagogik texnologiya variantlari ishlab chiqilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Akbarov I.A. Musiqa lug'ati. Toshkent. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1987.
2. O'zbekiston Milliy Entseklpediyasi. 1-jild. –T.: Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2000
3. Panjiyev Q.B., Yuldoshev U.Yu. Notalashtirish va komp'yuter dasturlarida ishlash. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2020.